

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

**BOSHLANG'ICH TA'LIM METODIKASI
KAFEDRASI**

**Mavzu: "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch"
asarini o'qitishda texnologik yondashuv
kansepsiyasi**

KURS ISHI

Bajardi: 3-kurs talabasi Mengnorov X.

Termiz-2014

Reja:

Kirish.

Asosiy qism

1-“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarining o’rganilishining dolzarbligi va o’qitish strukturasi.

2-“Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” fani bo’yicha nazariy va amaliy o’quv mashg’ulotlarda o’qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari.

3. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari bo’yicha bilimlarga ega bo’lishda yoshlarda:

- O’quvchi-yoshlarda ma’naviy ta’minlanganlikni shakllantirish;
- yoshlar savodxonligini davr talabi darajasida rivojlantirish;
- erkin fikrlash, fanga qiziqish, mustaqil, ijodiy, ilmiy ishlashga intilish uyg’otish,kabi tuyg’ularni uyg’otish.

Xulosa

Foydalangan adabiyotlar ro’yhati:

Taqriz varag’i:

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarining barha ta'lim muassasalarida xususan, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida o'rganilishi bejiz emasdir. Chunki, jamiyatning ertangitaraqqiyoti yosh avlod qo'lida ekan, ularni har tamonlama yetuk barkamol etib tarbiyalanmog'i lozimdir. Zero, shaxsning ichki dunyosi boyligi, bilim-ma'rifatli, e'tiqodi mustahkam bo'lishi uning ma'naviy dunyosining qay darajada shakllanganligini bildiradi. Bugungi kunda jamiyatimiz taraqqiyotida ma'naviyatning o'rni beqiyosligi hammamizga ma'lum bo'lgan voqelikdir. Ana shu mulohazalardan kelib chiqib, ushbu asar o'rganilishi ma'qul deb topildi.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" o'rganilishi bo'yicha ta'lim texnologiyasi nazariy, amaliy, o'quv mashg'ulotlarni loyihalash texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan.

Mazkur qo'llanma kirish, ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari hamda nazariy, amaliy to'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalaridan tarkib topgan.

Ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari bo'limida "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" o'rganilishining dolzarbligiga asoslangan, mazkur fanning tuzilmasi keltirilgan hamda maxsus kurs bo'yicha o'qitishning mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga o'qitish, kommunikatsiya, axborot va ta'lim jarayonini boshqarish usullari va vositalarining konseptual asoslari, pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va echimlari, tamoyillari, yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari yoritilgandir.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" o'rganilishi bo'yicha o'qitish texnologiyalari loyihalashtirilgan.

1) Nazariy o'quv mashg'ulotlarini olib borishning kirish-ma'ruza, mavzu asosida ma'ruza, muammoli ma'ruza, vizuallashtirilgan ma'ruza, konferentsiya ma'ruzalar ko'rinishlari qo'llanilishi;

2) Seminar o'quv mashg'ulotlarni olib borishning topshiriqlarni individul tarzda yoki guruhda bajarilishi, muammoli amaliy mashg'ulot hamda bilimlarni chuqurlashtirish va mustahkamlashga yo'naltirilgan amaliy topshiriqlarni bajarilishi.

Mazkur ta'lim texnologiyasi barcha o'rta-maxsus va kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qitish texnologiyasida ko'zda tutilgan sharoitlar va vaqti mavjud bo'lgan holda "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" o'rganilishini olib borishda o'qituvchi tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Mualliflar mazkur ta'lim texnologiyasini yaratishda o'zining maslahatlarini ayamaganligi, kitobning yanada mazmunli bo'lishida fikrlari bilan o'rtoqlashganligi hamda tashkiliy ishlarga yordam berganliklari uchun TDIU dotsentlari L.V.Golishga D. M. Fayzullayevaga, O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi dotsenti H. Oftobxo'jayevalarga o'z minnatdorchiligini bildiradilar.

Shu bilan birgalikda muallif qo'llanmada uchraydigan ayrim kamchiliklar va me'yoriga etmagan o'rinlar uchun uzr so'rab, bildirilgan barcha tanqidiy mulohaza va takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

"Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" o'rganilishining maqsadi. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarini uzluksiz ta'lim tizimida o'rganishd o'rganilishi n maqsad – yoshlarga inson, millat, davlatning barqarorligi, taraqqiyotiga erishish va bu yo'ldagi qiyinchliklarni yengishda hal qiluvchi kuch va tayanch nuqta yuksak ma'a'naviyat ekanligini singdirishdir.

Jamiyat va shaxsning yuksak ma'naviyatni shakllantirish, ma'naviyatni shakllantiruvchi mezonlar, vositalar, usullar, milliy g'oyani singdirish yuzasidan bilimlarga ega bo'lish, shakllantirish, mustaqil fikrlashni shakllantirish fanning asosiy vazifasidir. Bu ikkita — ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarga bo'linadi.

Ta'limiy vazifalar:

- "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari bo'yicha bilimlarga ega bo'lish;
- O'quvchi-yoshlarda ma'naviy ta'minlanganlikni shakllantirish;

- yoshlar savodxonligini davr talabi darajasida rivojlantirish;
- erkin fikrlash, fanga qiziqish, mustaqil, ijodiy, ilmiy ishlashga intilish uygʻotish, adabiyotlardan foydalanish va h.k.;

Tarbiyaviy vazifalar:

- Yoshlar maʼnaviy barkamol insonlar boʻlib tarbiyalashda milliy tarbiya modulini yaratish;
- ona-Vatan tuygʻusini yoshlarning qon-qoniga singdirish;
- Vatan, oila, jamiyat oldida oʻz burchlarini toʻla anglab, hayotda amalga oshirish;
- inson manfaatlarining xalq, davlat va jamiyat manfaatlari bilan uygʻuligini taʼminlash;
- oʻz bilim omillariga, vazifalariga masʼuliyatini oshirish;
- nopok yoʻllardan qaytarish va h.k.

“Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asari oʻrganishda oʻquv rejasidagi deyarli barcha fanlar bilan aloqada oʻrganiladi. Ayniqsa, “Tarix”, “Adabiyot”, “Oʻzbekiston Konstitutsiyasini oʻrganish”, “Estetika”, “Iqtisod” va boshqa ijtimoiy fanlar bilan bogʻliq boʻlib, bevosita va bilvosita aloqada boʻladi.

“Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asarini oʻrganishda asarning mazmunidan kelib chiqqan holda ilgʻor pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

“Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch” asari oʻrganilishi 20 soat ajratilgan boʻlib, shu jumladan 14 soat nazariy, 6 soat amaliy mashgʻulot, 8 soat mustaqil ishdan iborat. Ushbu asarning oʻrganilishi kasb-hunar kollejlarining I bosqich oʻquvchilariga oʻqitiladi.

Maʼnaviyatni anglash

Mamlakat taraqqiyotini belgilovchi strategik maqsadlarni amalga oshirishning manbai va garovi xalq ekanligi. Tarixiy xotira. Milliy oʻzlikni anglash. Oʻzlikni anglash, millat kelajagini taʼminlaydi. Yuksak maʼnaviyat xalqimizga xos xislat va uning tarixiy, tabiiy va ijtimoiy omillari. Maʼnaviyat xalqning buguni, taqdirini kelajagini belgilovchi asosiy mezonlardan biri.

Ma'naviyat tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Milliy g'urur, milliy iftixor. Milliy ruh. "yapon mo'jizasi", "Koreys mo'zasi"ning millat ma'naviy fazilatlariga bog'liq.¹

Ma'naviyatni shakllantiradigan asosiy mezonlar.

Ma'naviyatimizni shakllantiruvchi mezonlar. Milliy meros milliy g'oyani milliy meros bilan boyitish. Tarixiy-me'moriy obidalar va ularning YuNESKO ro'yxatiga kiritilishi. Madaniy boyliklar. "Avesto" bebaho ma'naviy meros. Milliy bayramlar – xalq ma'naviyatining ko'zgusi. "Ommaviy madaniyat" tushunchasi va uning ma'naviyatga ta'siri. Muqaddas dinimiz – milliy ma'naviyatning tarkibiy qismi. Tasvvufda axloqiy kamolotga erishishning to'pt bosqichi. Islom dini va diniy aqidaparstlik. 2007 yil Toshkent shahrini "islom madaniyati poytaxti" deb e'lon qilinganligi. Buyuk allomalarimizning dunyo miqyosida e'tirov etilishi. Millat ma'naviyatini yuksaltirishda oila va mahallaning o'rni va ahamiyati. Ta'lim-tarbiya inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi.

Ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi.

Ma'naviy va moddiy olam o'rtasidagi munosabatlar. Inson o'zida ham moddiy, ham ma'naviy xususiyat va alomatlarni mujassam etganligi. Moddiy va ma'naviy olamning uyg'unlashuvi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida moddiy, ma'naviy xususiyatlar. Mamlakatimizda moddiy va ma'naviy jarayonlarning o'zaro mutanosib rivojlanayotganligi – taraqqiyot garovi. "O'zbek modeli"ning milliy, tarixiy ma'naviy qadriyatlarimizga mosligi, unda katta e'tibor xalq farovonligi, tinchligi va inson omiliga qaratilganligi.

Milliy g'oya va ma'naviy hayot.

Milliy davlatchilik barpo etishda uni taraqqiy ettirishda milliy g'oyaning o'rni. Milliy g'oya tushunchasining mazmun-mohiyat. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillardan milliy g'oya, milliy mafkurani shakllantirish asosiy vazifalardan biri ekanligi. Vatab ravnaqi xalq farovonligining kalitidir. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish. Demokratik islohotlarni izchil, bosqichma-bosqich olib borish. Milliy siyosat asoslanadigan tamoyillar.

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T "O'zbekiston", 2008

Ma'naviyat va jamiyatning yangilanishi.

Erkin fuqaro shakllantirish dolzarb vazifa.O'zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining joriy etilishi. Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish. Axloqiy madaniyat.Milliy qadriyatlar.Qadriyat atamasi.Ona tili bu – millatning ruhi.Vatanga muhabbat o'zlikni anglashdan boshlanadi. Xalq ma'naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlar va tarixiy xotiraning ahamiyati.mehr-oqibat. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q.‘Xotira va qadrlash kuni”ning joriy etilishi.

Islohotlar va ularning ma'naviy mezoni.

Yangi taraqqiyot yo'liga qadam.O'zbekistonning bozor munosabatlariga yo'li.Taraqqiyotning o'zbek moeli.Modelning asosiy tamoyillari.Davlat mulkini xususiylashtirish bozor munosabatlariga o'tishning muhim shartlaridan biri ekanligi.Bozor iqtisodiyoti sharoitida inson omili. Islohlarning o'tkazilishi vaularning xalqimiz ruhiyati, turmush tarzu, urf-odat, an'analariga har tamonlama mosligi.ma'naviyat va iqtisodiyotning o'zaro aloqadorligi – jamiyat taraqqiyoti va barqarorligi garovi.

Globalashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar.

Globalashuv fenomeni. Globalashuv jarayonlarining tezlashuvining asosiy omili va sababi. Zamonaviy axborot maydoni va unda harakatlar tig'izligi. Globalashuv mafkuraviy ta'sir o'tkazish quroli sifatida.Mafkuraviy poliginlar.mustqillikni mustahkamlashning muhim omili ogohlik ekanligi. Ma'naviy bo'shliq va zamonaviy axborot maydoni xavfi. Ma'naviyatimizga zid illatlar va ularning jamiyat taraqqiyotiga salbiy ta'siri. Millatlararo va dinlararo totuvlikning ta'minlanishi. Ma'naviy tahdidlarva ularning ta'sir qilish ko'rinishlari.Mustaqil dunyoqarash.Sog'lom fikrlash.Komil inson, sharqona axloq me'yorlari.

Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya.

Fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya jaholatga qarshima'rifat bilan kurashish.¹ Ma'furaviy profilaktika va uning zarurati. Ma'furaviy immunitet.Ma'naviy tajovuzlar.Ma'naviy boylik inson irodasining quvvati.Ma'naviyat targ'ibot markazi. Milliy g'oya va mafkura ilmiy – amaliy markazi. Ommaviy axborot vositalari.Zamonaviy texnologiyalar.Yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash vositalari.

Inson qalbiga yo'l.

Ma'naviyatni kuchli qurolga aylantirish vositalari: ta'lim-tarbiya, oramaviy axborot vositalari. Boy ma'naviy meros va uning mazmun-mohiyati. Badiiy adabiyot – inson ruhiyatining ko'zgusi.Musiqaning inson ma'naviyatiga ta'siri.Teatr – ma'naviyat maskani. Kino sa'natining inson ongi va tafakkuriga, jamiyat hayotiga ta'siri. Mustaqillik yillarida tasviriy sa'nat va uning yutuqlari.

Eng buyuk jasorat.

Eng buyuk jasorat – ma'naviy jasorat.Antik davr faylasuflarining ma'naviy qahramonliklari. Sharq dunyosida akademiyalar faoliyati va unda faoliyat yuritgan allomalarning ma'naviy boy merosimizning shakllanishida qo'shgan hissalar. Vatan uchun jonini fido qilganlar – ma'naviy jasoar timsollari.Bobodehqon ma'naviy jasorati.Hozirgi zamon o'zbek ilnfaning, adabiyotining ma'naviy jasorat ko'rsatayotgalari haqida.Prezidentimiz I. Karimiov tamonidan milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi – ma'naviy jasoratdir.Passionar shaxs.Hozirgi zamon rahbarlarining ma'naviy qiyofasi.

“Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” fani bo'yicha nazariy va amaliy o'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqishning konseptual asoslari.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi, o'z taqdirini o'zi belgilashdek buyuk baxt bugungi yosh avlodga nasib etdi. Respublikamizda demokratik huquqiy davlat qurilmoqda. Bunday davlatni barpo etish uchun esa jamiyat, xalq, ayniqsa, yoshlar yuksak darajada huquqiy bilimli, madaniyatli

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T “O'zbekiston”, 2008

bo'lishi kerak¹). Keyingi yillarda Respublikamizda mustaqillikni mustahkamlash, ta'limni rivojlantirish borasida juda ko'p ishlar qilinmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi,

Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 13-mayda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'lim to'g'risida»gi Nizomi, «O'zbekiston Respublikasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997-yil 29-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi», 2001-yil 4-yanvarda Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini o'rganishni tashkil qilish to'g'risida»gi farmoyishi va boshqa bir qancha huquqiy hujjatlar misol bo'la oladi.

Mamlakatimizning rivojlanishi, dunyo miqyosida hurmat va e'tiborga sazovor bo'lishi kelajak avlodni har tomonlama kuchli va bilimdon qilib tarbiyalashni taqozo etadi. «O'zbekiston Respublikasida yoshlar va turli yoshdagi balog'atga yetmaganlarning huquqiy ta'limi haqida»gi Nizomga asosan huquqiy ta'lim respublikadagi barcha oliy o'quv yurtlarida, maktablarda, gimnaziyalarda, litseylarda, professional va ixtisoslashtirilgan texnika bilim yurtlarida (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) maxsus dastur asosida olib borilishi lozim.

O'zbek xalq og'zaki ijodini o'rganish Respublikadagi barcha akademik litsey va kasb-hunar kollejlari talabalariga bejis tavsiya etilmagan. Chunki xalqimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, o'zbekona urf-odatlar, rasm-rusumlar, asrlar davomida yaratilgan dostonlar, ertaklar, qo'shiqlar haqida alohida g'urur bilan gapira boshlandi¹. Bugungi kunda o'zbek qadriyatlari bulog'idan suv ichgan o'zbekona muomalani butun qalbiga singdirgan, to'ylarda azalarda, ishboshilik qiladigan, murosasi kelishmagan taraflar o'rtasini totuvlashtiradigan o'zbeklar ko'paymoqda. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida xalq og'zaki ijodini alohida fan sifatida o'rganish ma'qul topildi.

¹ I. A. Karimov. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevorining poydevori. T., 1997

¹ I. A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston". 1998. 5-66-betlar

Xalq va davlatning o`ziga xos mentalitetini hisobga olgan holda O`zbekiston tanlab olgan o`z rivojlanish modeli shunga olib keladiki, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma`naviy hayotning taraqqiy etgan mamlakatlarda umume`tirof etilgan tamoyillari hamda me`yorlari hukmron va muqarrar xususiyat kasb etib, ular mamlakatimizning nafaqat hozirgi holatini, balki uning rataqqiyotini belgilaydi.

Zamonaviy iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarni rivojlantirish asosida kadrlar tayyorlashning takomillashgan tizimini yaratish mamlakatni taraqqiy ettirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Tizimning amal qilishi kadrlarning istiqbolga mo`ljallangan vazifalarni hisobga olish va hal etish qobiliyatiga, yuksak umumiy va kasbiy madaniyatga ijodiy va ijtimoiy faolikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda yo`nalish ola bilish mahoratiga ega bo`lgan yangi avlodni shakllantirishni ta`minlaydi.

Yurtboshimiz tomonidan ilmiy asoslab berilgan ta`lim-tarbiya modelini amaliyotga tatbiq etish o`quv jarayonini texnologiyalashtirish bilan uzviy bog`liqdir. Shundan kelib chiqib Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida «O`quv tarbiyaviy jarayonni ilg`or pedagogik texnologiyalar ta`minlash» uning 2- va 3-bosqichlarida bajariladigan muhim vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining ikkinchi bosqichi ta`lim jarayonidagi sifat ko`rsatkichlarini yaxshilash, ya`ni jahon andozalariga mos, raqobatbardosh, yuqori saviyaga ega bo`lgan mutaxassislar tayyorlashdir.¹ Ushbu murakkab muammolarning echimini topib, ularni amalda keng qo`llash oliy ta`lim tizimi xodimi oldiga juda katta vazifalarni qo`yadi. Bunda aniq vazifalar sifatida bevosita o`quv jarayonini yaxshilash, o`quv dasturlarini yanada takomillashtirish,

o`qitishning zamonaviy pedagogik texnologiyalarini amalga joriy qilish, texnik vositalardan keng foydalanish va shu asosda masofadan o`qitishni keng joriy qilish belgilab beriladi.

Mamlakatimizdagi ta`lim yo`nalishlarida o`qitish texnologiyalar, eng avvalo, insonparvarlik tamoyiliga asoslangandir. Falsafa, huquq, pedagogika va

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi-T.: "Sharq", 1998 182-bet.

psixologiyada e'tirof etilganidek, bu yo'nalishning asosiy farqli tomoni shundaki, bunda diqqat-e'tibor talabani shaxsiga qaratiladi. Chunki talaba bo'lajak mutaxassis, u – shaxs. Shuning uchun ta'lim jarayonidan o'qitish texnologiyalari talabani o'ziga xos shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, mustaqil, faol bilish faoliyatini tashkil etishga qaratilgan. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, «Huquqshunoslik» o'quv fani bo'yicha ta'lim texnologiyalarini loyihalashtirishda quyidagi asosiy majmuaviy yondashuvlarni ko'rsatib beramiz:

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim. Bu ta'lim o'z mohiyatiga ko'ra ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarini to'laqonli rivojlanishlarini ko'zda tutadi. Bu esa ta'limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma'lum bir ta'lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi mutaxassislik faoliyati bilan bog'liq o'qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi.

- Tizimli yondashuv. Ta'lim texnologiyasi tizimning barcha belgilarini o'zida mujassam etmog'i lozim: jarayonning mantiqiyligi, uning barcha bo'g'inlarini o'zaro bog'liqligi, yaxlitligi.

- Faoliyatga yo'naltirilgan yondashuv. Shaxsning jarayonli sifatlarini shakllantirish, ta'lim oluvchining faoliyatini faollashtirish va tezlashtirish, o'quv jarayonida uning barcha qobiliyati va imkoniyatlari, tashabbuskorligini ochishga yo'naltirilgan ta'limni ifodalaydi.

- Dialogik yondashuv. Bu yondashuv o'quv jarayoni ishtirokchilarining psixologik birligi va o'zaro munosabatlarini yaratish zaruriyatini bildiradi. Uning natijasida shaxsning o'z-o'zini faollashtirishi va o'z-o'zini ko'rsata olishi kabi ijodiy faoliyati kuchayadi.

- Hamkorlikdagi ta'limni tashkil etish. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasida demokratik, tenglik, hamkorlik kabi o'zaro sub'ektiv munosabatlarga, faoliyat maqsadi va mazmunning birgalikda shakllantirish va erishilgan natijalarni baholashga e'tiborni qaratish zarurligini bildiradi.

- Muammoli ta'lim. Ta'lim mazmunini muammoli tarzda taqdim qilish asosida ta'lim oluvchining o'zaro faoliyatini tashkil etish usullaridan biridir. Bu jarayon ilmiy bilimlarni ob'ektiv qarama-qarshiligi va uni hal etish usullarini

aniqlash, dialektik tafakkurni va ularni amaliy faoliyatda ijodiy qo'llashni shakllantirishni ta'minlaydi.

- Axborotni taqdim qilishning zamonaviy vositalari va usullarini qo'llash. Bu yangi kompyuter va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashdir.

Berilgan kontseptual qoidalarga asosan, «Xalq og'zaki ijodi» fanining maqsadi, tuzilishi, o'quv ma'lumotining mazmuni va hajmidan kelib chiqqan holda, berilgan sharoitda va o'quv rejasida belgilangan vaqtda, fan bo'yicha davlat ta'lim standartlarida erishishni ta'minlaydigan kommunikatsiya, ma'lumot, boshqarish va o'qitishning uslublari hamda vositalari yaxlitlikda tanlab olindi.

- O'qitish uslublari va texnikalari. Ma'ruza (kirish, mavzuiy, ma'lumotli, ko'rgazmali (vizuallashtirgan), anjuman, aniq vaziyatlarni echish), munozara, muammoli uslub, tenbord, aqliy hujum, tezkor-so'rov, savol-javob, amaliy ishlash usullari.

- O'qitishni tashkil etish shakllari: dialog, polilog, muloqot, hamkorlik va o'zaro o'qitishga asoslangan frontal, jamoaviy va guruhlarda o'qitish.

- O'qitish vositalari: o'qitishning an'anaviy vositalari (darslik, o'quv qo'llanmasi va ma'ruza matni) bilan bir qatorda chizmani organayzerlar, kompyuter va axborot texnologiyalari.

- Kommunikatsiya usullari: talabalar bilan tezkor, qaytar aloqaga asoslangan bevosita o'zaro munosabatlar.

- Qaytar aloqalarning (ma'lumotning) usul va vositalari: Joriy oraliq va yakuniy nazorat natijalarini tahlil qilishga asoslangan kuzatish, tezkor-so'rov, o'qitish diagnostikasi.

- Boshqarish usullari va vositalari: o'quv mashg'ulotining bosqichlari, belgilangan maqsadga erishishda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchining faoliyati, nafaqat auditoriya ishini, balki mustaqil va auditoriyadan tashqari ishlar nazoratini (joriy, oraliq, yakuniy) belgilab beruvchi o'quv mashg'ulotlarini texnologik xarita ko'rinishida rejalashtirish.

- Monitoring va baholash: o'quv mashg'ulot jarayonida (o'quv vazifalari va testlarni bajargani uchun baholash, ta'lim oluvchining har bir o'quv

mashg'ulotidagi o'quv faoliyatini reyting baholash), ham butun kurs davomida (har bir ta'lim oluvchining reyting bahosiga asosan joriy, oraliq va yakuniy natijalari) ta'lim natijalarini rejali tarzda kuzatib borish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish bilan bir vaqtda ma'naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga yetkazish borasida keng ko'lamda faoliyat ko'rsatmoqda. Respublika Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, ma'naviyatning mohiyati shunchalik kengki, uni o'lchab ham, poyoniga yetkazib ham bo'lmaydi. U inson uchun butun bir olamdir¹.

Jamiyatimiz hayotida ma'naviy kamolotni tezlashtirish, milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, milliy qadriyatlarni o'rganish mustaqillikni mustahkamlashning asosiy vazifalaridan biridir. Hayotimizda ma'naviy kamolotni rivojlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ajdodlarimizning bizgacha yetib kelgan boy madaniy merosini o'rganish ham katta o'rin egallaydi.

Milliy va diniy qadriyatlar, urf-odatlar, buyuk ota-bobolarimiz qoldirgan ma'naviy merosni o'rganish va targ'ib etish uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Bu boradagi tadbirlar mustaqillikning dastlabki kunlaridan amalga oshirilmoqda. Jumladan, 1991 yili buyuk alloma, g'azal mulkining sultoni Alisher Navoiy yubileyini o'tkazish katta voqea bo'ldi. Shoirning asarlari nashrdan chiqarildi. 1994 yili Mirzo Ulug'bek tavallud topgan kunning 600 yilligi keng ko'lamda, jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKOning Parijdagi qarorgohida yubileyga bag'ishlangan haftalik va ko'rgazma ochildi.

Amir Temurning 660 yilligi 1996 yilda nishonlandi. YUNESKO tomonidan 1996 yil – Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Mamlakatimizda Temur va temuriylar tarixi muzeyi ochildi, Amir Temurga haykallar barpo etildi, uning nomi bog'larga, xo'jaliklarga, ko'chalarga berildi(1)².

Respublikamizda bizgacha yetib kelgan boy merosni o'rganish, milliy o'zlikni anglash, ma'naviy qadriyatlarni rivojlantirishga keng ko'lamda e'tibor

¹ I. A. Karimov O'zbekiston buyuk kelajak sari. T., "O'zbekiston". 1998. 5-66-betlar

² I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. - T.: "O'zbekiston", 1996, 28-29-betlar

berilmoqda. Islom olamining allomalari Iso at-Termiziy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Naqshbandiy, Imom al-Buxoriy, Moturidiy, Marg`inoniy kabilarning to`yonalari keng ko`lamda nishonlanib, ularga bag`ishlab haykallar qo`yildi, asarlari chop etildi. Bundan tashqari xalq qahramonlarimizning to`yonalari ham o`tkazildi. Jumladan Jaloliddin Manguberding 800 yilligi, «Alpomish» dostoni yaratilishining 1000 yilligi katta tantanalar bilan nishonlandi.

Ma'naviy hayotni takomillashtirish borasida 1994 yili O`zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazini tuzish haqida farmon e'lon qilindi. Markaz tomonidan Imom al-Buxoriy yubileyiga bag`ishlab «Al-jome' as-sahih» (Ishonarli to`plam) va «Al-adab al-mufrad» (Adab durdonalari) o`zbek tilida nashr etildi. 1998 yilda Imom al-Buxoriy 1225 yilligi, Ahmad al-Farg`oniyning 1200 yilligi nishonlandi. Bularning barchasi O`zbekistonda chinakam milliy qadriyatlarni tiklash uchun yuritilayotgan katta ishlardan dalolat beradi. Ma'naviy taqdiriylarning tiklanishi uning bir bo`lagi bo`lgan diniy qadriyatlarga ham e'tiborni kuchaytirdi. 1992 yil Prezident Farmoni bilan Ramazon va Qurbon hayitlari umumxalq bayrami deb e'lon qilindi. Muborak Haj safari tiklandi. «Movarounnahr» diniy boshqarmasining faoliyati respublikamiz hayotida o`z o`rnini egalladi. Xalqining asrlar davomida nishonlanib kelgan «Navro`z» bayrami umumxalq bayrami sifatida qayta tiklandi.

Jamiyat taraqqiyotida ro`y berayotgan o`zgarishlarni tushunish, hur fikrlikka intilish uchun kishilarni yangi yo`ldan olib boruvchi g`oyaviy qarashlar ham hozirgi kunning asosiy vazifalaridan biri bo`lib qolmoqda. Jamiyatimizda siyosiy mustaqillikka erishib, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy ishlar amalga oshirilayotgan biri vaqtda kishilar ongida mustaqillik g`oyasi, milliy mafkura muhim o`rin olishi zarur edi. Busiz, ya'ni fikrlash, e'tiqod o`zgarmasdan bozor munosabatlariga o`tish davrida siyosiy-iqtisodiy barqarorlik mustahkam bo`lishi qiyin vazifa bo`lardi. I.A.Karimov milliy istiqlol mafkurasiga ta'rif berib, uning «asl ma'nosi eskicha aqidalardan xoli bo`lgan, mustaqil va yangicha fikrlovchi kishilarni tarbiyalashdan iborat» deydi. Mustaqillik g`oyasi va milliy mafkuraning xalqimizga to`g`ri yo`l ko`rsatuvchi, uni birlashtiruvchi, buyuk maqsad uchun butun kuchlarini

uyg'unlashtiruvchi ahamiyatini nazarda tutib, Prezident I.Karimov 1993 yil 6 may O'zR Oliy Kengashining 2 chaqiriq XII sessiyasida «oldimizda turgan eng muhim maqsad bu – milliy istiqlol mafkurasini yaratish va hayotimizga tatbiq etishdir»¹degan edi.

Kishilarimizni qaysi toifa va guruhdan bo'lishidan qat'i nazar ma'naviy inqirozdan chiqaradigan yagona milliy g'oya atrofida birlashtiradigan birdanqbir qudratli kuch milliy mustaqillik mafkurasini bo'ldi.

Yagona maqsad, yagona g'oya bo'lmasa jamiyat inqirozga uchraydi. Buni biz yaqin va olis tarixdan bilamiz. Milliy mafkura kelajak maqsadni ifodalaydigan, xalqimizning ming yillik tarixini buyuk kelajak bilan bog'laydigan, ana shu buyuk maqsad yo'lida kishilarimizni birlashtiruvchi bayroq vazifasini bajaradi.

O'zbekiston jamiyatining milliy istiqlol mafkurasini, o'z mohiyatiga ko'ra, xalqimizning asosiy maqsad-muddaolarini ifodalay digan, uning o'tmishi iva kelajagini bir-biri bilan bog'laydigan, asriy orzu-istaklarini amalga oshirishga xizmat qiladigan g'oyalari tizimidir.

Milliy istiqlolimizning asosiy g'oyalari xalqimiz mustaqil taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasidan kelib chiqadi. O'zbekiston xalqining milliy taraqqiyot yo'lidagi bosh g'oyasi – mustaqillikni mustahkamlash, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishdir. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalari: Vatan ravnaqi, yurt tinchligi, xalq farovonligi, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo hamjihatlik, diniy bag'rikenglikdir.

Bugungi kunda milliy istiqlol g'oyasini keng xalq ommasi ongiga singdirish borasida qator tadbirlar yushtirilmoqda.Bu borada ziyolilarimizning o'rni kattadir, chunki aynan ular milliy mafkuramizning, milliy istiqlol g'oyasining faol tashvi'otchi va targ'ibotchilaridir.

Istiqlol yo'lida qadam tashlab borayotgan Vatanimizdagi mavjud ma'naviy, madaniy omillarga e'tibor berish bilan birga fan, maorif, ta'lim-tarbiya ishlariga ham e'tibor kuchaytirildi.

¹ Prezident I.Karimov 1993 yil 6 may O'zR Oliy Kengashining 2 chaqiriq XII sessiyasida

Respublikamizda ta'limning yangi tizimini amalga oshirishda, O'zbekiston hukumati tariximizdagi ta'lim jarayonlarini o'rganib chiqib, ta'limni isloh qilish dasturini tayyorladi. Barcha e'tibor ta'lim tizimlarini demokratik va insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirib, uning moddiy texnika bazasini, zamon va davr talablari darajasiga ko'tarish va O'zbekistonning ma'rifiy salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Shu maqsadda 1997 yil 29 avgustda Respublikamizda «Ta'lim to'g'risidagi qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi» qabul qilindi.¹

Ta'limni isloh qilish quyidagi tamoyillar asosida olib boriladi:

- ta'lim-tarbiyaning insonparvarligi va demokratiyaviyligi;
- ta'lim tizimining uzluksizligi, izchilligi, ilmiyligi va dunyoviyligi;
- ta'limda umuminsoniy, milliy-madaniy va ma'naviy qadriyatlarning ustuvorligi;
- e'tiqodi, dinidan qat'i nazar barcha fuqarolar uchun ta'lim olish imkoniyatlari yaratilganligi;
- ta'lim muassasalarining siyosiy partiyalar va harakatlar ta'siridan xoliligi.

Kadrlar tayyorlash bo'yicha Milliy dastur har bir shaxs hamda davlat va jamiyat manfaatlarini iqtisodiy xolat va uning raqobatbardoshligi bilan bog'liq bir qator muammolarni echishga, hal qilishga yo'naltirilgan. «Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dastur to'g'risida»gi Qonuni haqida Prezident I.Karimov O'zR Oliy Majlisining 9 sessiyasida bu qonun «Mustaqilligimizning bugungi va ertangi hayotimizning kafolati hisoblanadi», degan edi. Milliy dasturning maqsad va vazifalari, ularning asoslanganligi, muhimligi va muammolarni hal qilish yo'llari mustahkam ilmiy fundamentga tayanadi.

Birinchidan, Milliy dastur negizida tizimli yondashuv etadi. Raqobatbardosh kadrlar tayyorlash muammosi va uni hal qilish yaxlit bir sistema kadrlar tayyorlash tizimining samarali ishlashga ta'sir ko'rsatuvchi o'zaro bog'langan barcha omillar bo'yicha ko'rib chiqiladi.

1. Ta'lim-tarbiya yo'nalishlari:

- kadrlar tayyorlash sifati va kadrlar raqobatbardoshligi;

¹ O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi-T.: "Sharq", 1998

- ma'naviyat va ma'rifat;
- professional ta'lim, fan va ishlab chiqarish integratsiyasi;
- iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlar;
- kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- ilmiy-pedagogik kadrlar;
- qishloq maktablarini rivojlantirish;

2. Informatson yo`nalish:

- axborot texnologiyasi va ta'limni informatizatsiyalash;
- o`quv jarayonini axborotlar bilan ta'minlash va XXI asr kutubxonasi;
- oliy professional ta'lim xolatini baxolash va kadrlar tayyorlashni bashorat qilish tizimi;

3. Ijtimoiy yo`nalish:

- bolalar va o`quvchi yoshlar salomatligi muxofazasi;
- maxsus ta'lim: alohida nuqsoniy tarbiya va ta'lim;
- ijtimoiy himoya.

Ikkinchidan, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash vazifasini hal qilish professional ta'limning hamma bosqich va tabaqalari uchun, xalqaro modellar va meyorlar asosida yaratiladigan ilmiy asoslangan, ilg`or ta'lim standartlari kompleksiga tayanadi.

Uchinchidan, milliy dasturda ko`zlagan rejalarni amalga oshirish negizida islohotlarni o`tkazish o`zbek modelining eng asosiy tamoyili islohotlarni bosqichma-bosqich o`tkazish printsipi yotadi.

Iqtidorli o`quvchi yoshlarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha maqsadli davlat siyosati amalga oshirilmoqda.1

1 bosqichda 1997-2001 yillar amaldagi kadrlar tayyorlashdagi tizimi salohiyatlarini saqlagan holda bor tizimning rivojlanishi uchun huquqiy, me'yoriy, ilmiy-metodik va moliyaviy moddiy shart-sharoitlarni yaratish bilan bog`liq bo`lgan vazifalar majmuasi hal qilindi.

2 bosqichda 2001-2005 yillar rejalashtirilgan masalalar bo`yicha Milliy dastur deyarli to`la amalga oshirildi.

3 bosqichda 2005 yildan keyingi yillar XXI asr raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashning yalpi tizimini taraqqiy ettirish va takomillashtirish nazarda tutiladi.

Milliy dasturning birinchi va ikkinchi bosqichini amalda bajarilishi O`zRning mustaqillik yillarida erishgan intellektual va moddiy, ilmiy-metodik, me'yoriy va huquqiy potentsiallari, shuningdek, xorijiy mamlakatlarning ta'lim va fan, texnika va texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohalaridagi yutuqlarga tayandi. Oliy ta'lim sohasidagi markazdan belgilash o`rniga kadrlar tayyorlashning mintaqaviy demokratik printsiplariga amal qilish siyosati o`tkazilmoqda. Oliy o`quv yurtlari ko`paymoqda. Reyting tizimi va test usuli asosida abituriyent va talabalarning bilimdonligini xolisona baholash usullari joriy qilindi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Yangi talablarga muvofiq ravishda aspirantura va doktoranturada kadrlar tayyorlashga keng yo`l ochildi. Oliy attestatsiya xay'ati faollik ko`rsatayapti. Iqtidorli o`quvchi yoshlarni qo`llab-quvvatlash bo`yicha maqsadli davlat siyosati amalga oshirilyapti.

Maxsus fondlar yaratildi va qobiliyatli yoshlarni xorijdagi etakchi o`quv va ilmiy markazlarda o`qitish tashkil qilindi. O`zR Prezidentining davlat stipendiyalari, buyuk allomalar nomi bilan atalgan stipendiyalar joriy qilindi.

O`quv ta'lim va fan sohalarida xalqaro aloqalar kengaymoqda. Bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan yaqin munosabatlar o`rnatilmoqda. Ta'lim sohasidagi xukumatlararo bitimlar tuzilgan. Ta'lim jarayonining mazmuniga oid muammolar sifat jihatdan yangi bosqichga ko`tarilmoqda. O`quv dasturlari, rejalariga o`sib kelayotgan avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, odamiylik alomatlari kirib bormoqda. Gumanitar ijtimoiy iqtisodiy fanlar turkumi butunlay yangidan ko`rib chiqilmoqda. Ta'limning barcha tabaqalariga ma'naviyat, iqtisod, chet tillarini o`rganishga katta ahamiyat berilmoqda.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab huquqiy davlatchilik asoslarini yaratish muhim vazifalardan biriga aylandi. O`zbekiston rahbariyati tarixiy an'analarga, dunyo tajribalariga, o`lkaning milliy-tarixiy rivojlanishiga hamda uning o`ziga xos tomonlariga tayangan holda jamiyatni tubdan isloh qilish yo`llarini ishlab chiqdi. Bu jarayonda ikkita vazifa: 1) eski ma'muriy buyruqbozlik

tizimni tugatish va hokimiyat boshqaruv organlarini qayta qurish; 2) yangi davlatchilikning huquqiy-siyosiy asoslarini yaratish, yangi markaziy va mahalliy boshqaruv organlarini shakllantirish masalalari hal qilindi.

O'zbekistonda hokimiyat bo'linishi tamoyillariga amal qilinib, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati joriy etilib, Konstitutsiyada mustahkamlandi. Bu organlar faoliyati erkin, bir-biridan mustaqil bo'lib, ayni vaqtda bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

1994 yil 24 dekabrda ko'ppartiyaviylik asosida saylangan Respublika Oliy Majlisi qonun chiqaruvchi hokimiyat vazifasini bajarib keldi. Oliy Majlisga saylovlar yangi bosqichga o'tganligidan 2004 yil dekabridagi saylovlar dalolat beradi. Oliy Majlis endilikda ikki palatadan - Qonunchilik palatasi va Senatdan iborat bo'ldi. O'tgan davr davomida Oliy Majlisda ko'plab yangi qonunlar qabul qilindi, oldingi qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi.

Davlatni boshqarishning prezidentlik shakli mamlakat boshqaruv tizimini isloh qilishning boshlanishi bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti davlat hokimiyatining boshlig'i bo'lib, bir vaqtning o'zida Vazirlar Mahkamasining Raisi vazifasini ham bajaradi. Prezident fuqarolar erkinligi va huquqlarini himoya qilish, Konstitutsiya va O'zbekiston qonunlariga rioya qilinishini kafolatlaydi. Vazirlar Mahkamasi ijro etuvchi hokimiyat organi bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jabhalardagi vazifalarning bajarilishini, qonunlar, Oliy Majlis qarorlari, mamlakat Prezidenti farmonlari va qarorlarining ijro etilishini ta'minlaydi. 2007 yil dekabrda bo'lib o'tgan saylovda 4ta nomzoddan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti demokratik tamoyillarga asoslangan holda saylandi.

Respublikada hokimlar boshqaruvining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi, hokimlikka tajribali va malakali shaxslar Prezident tomonidan tayinlanadi va xalq deputatlari kengashlari tomonidan tasdiqlanadi. Xalq deputatlari Kengashlari hokimiyatning vakillik organlari bo'lib, ular davlat va fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab o'z vazifalarini hal etadi. Mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlarining asosini mahallalar tashkil etadi. Aholini huquqiy, ijtimoiy va

iqtisodiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy jamg'armalar tashkil etish, turli xayriya tadbirlari o'tkazishda mahallaning o'rni kattadir.

Fuqarolik jamiyati bu insonning rivojlanishiga imkon yaratadigan, uning huquq va erkinliklarini to'la darajada ta'minlaydigan, qonun ustuvor bo'lgan ijtimoiy jamiyatdir. Bunday jamiyat qurish davlat qonunlari va inson huquqlarini poymol etmaslikni, insondan qonunlarga qat'iyan rioya qilishni talab etadi. Har bir fuqaroni davlat boshqaruviga keng jalb etilishi, inson huquqlarini himoya qilishda faol qatnashishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasi sud hokimiyati tizimiga besh yil muddatga saylanadigan Konstitutsiyaviy Sud, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, harbiy sudlar tizimi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy sudi, Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi, viloyat, tuman va shahar sudlari kiradi(1). Sud hokimiyatining faoliyati to'g'risidagi qonun qoidalar O'zbekiston Respublikasining 1993 yil 2 sentyabrda qabul qilingan «Sudlar to'g'risida»gi qonunda bayon etilgan.

Respublika rahbariyati sud hokimiyati doirasida islohotlar o'tkazib, inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, ularning erkinligi va majburiyatlarini kafolatlovchi huquqiy mexanizmni shakllantirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1999 yil oxirgi sessiyasi sud-huquqiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida advokatura tizimini kuchaytirish, sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash vazifalarini qo'ydi.

2004 yil dekabrda o'tkazilgan saylovlardan keyin respublika parlamenti – Oliy Majlis ikki palata tarkibida faoliyat yuritmoqda. Quyi palata - Qonunchilik palatasi o'z faoliyatini doimiy professional tarzda olib borib, qonun ijodkorligi bilan shug'ullanadi. Yuqori palata - Senat ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat o'rtasidagi o'zaro muvofiqlikni ta'minlash, respublikaning turli hududlaridagi aholi manfaatlarini himoya qilish va hisobga olish, qonunlar bajarilishini nazorat qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Muxolif partiyalar va harakatlar demokratik jamiyat qurishning zaruriy shartidir. 80-yillarning oxirlaridan boshlab O'zbekistonda bir qator ijtimoiy harakatlar paydo bo'ldi. Mustaqillik yillari mamlakatimizda 5 ta siyosiy partiya

tashkil topdi. O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi 1991 yil noyabrdan faoliyat ko'rsatib, o'z safida 420 mingdan ziyod a'zoni birlashtirgan.

Oliy Majlisning 69 ta deputati uning a'zolaridir. «Vatan taraqqiyoti» partiyasi 1992 yil may oyida tuzilgan bo'lib, uning saflarida 35 mingdan ortiq a'zo bor. Uning 14 a'zosi Oliy Majlis deputati. «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi 1995 yil fevralda tashkil topgan bo'lib, 30 mingdan ortiq a'zo bor. Oliy Majlisda 47 deputatdan tashkil topgan o'z fraksiyasiga ega. «O'zbekiston Milliy Tiklanish demokratik partiyasi» 1995 yil iyunda tashkil topgan. Saflarida 6 mingga yaqin a'zo bor. 1999 yil «Fidokorlar» milliy-demokratik partiyasi tashkil topdi. Shuningdek, Respublikada 1995 yil iyun oyida ta'sis etilgan «Xalq birligi» harakati ham mavjud. «Vatan taraqqiyoti» partiyasi va «Milliy tiklanish» partiyasi birlashdi. 2004 yilda O'zbekiston ishbilarmonlar va tadbirkorlar harakati – Liberal-demokratik partiyasi tashkil topdi. Bu partiya va harakatlarning har biri jamiyatda ma'lum qatlamlarning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy qarashlarini ifodalaydi. Ular parlament shaklidagi partiyalar bo'lib, qonun chiqaruvchi va vakillik organlari saylovlariga ishtirok etadilar va qonun doirasida faoliyat ko'rsatadilar. Shuningdek, bu partiyalar saylangan deputatlari orqali qonun chiqarish jarayonida ishtirok etadilar.

Mamlakatimizda partiya va harakatlardan tashqari 200ga yaqin kasaba, tadbirkorlar, yoshlar, faxriylar kabi ijtimoiy uyushmalar ham mavjud. Bular orasida eng ommaviy kasaba uyushmalari bo'lib, tarkibida 7,5 mln. a'zo bor. O'zbekiston hayotida yoshlarning o'rnini beqiyosdir. 1991 yil oxirida O'zbekiston yoshlar ittifoqi tuzilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 7 yanvar farmoni bilan iqtidorli yoshlarni xorijdagi ilg'or taraqqiy etgan oliygohlarda bilim olishlarini tayyorlash, tashkil etish uchun «Umid» javg'armasi tuzildi. Hozirgi kunda 2300 jamoat birlashmalari va nodavlat tashkilotlari faoliyat ko'rsatmoqda. Prezident I.A.Karimov «bu tashkilotlar faqat xayriya va muvaqqat muassasalariga aylanib qolmasdan, demokratik qadriyatlarni, kishilarning qonuniy haq-huquqlarini va erkinliklarini himoya qilishlari kerak»¹, deb vazifa qo'ydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 7 yanvar farmoni

O'zbekiston Respublikasi 120dan ortiq millatlar va elatlarni birlashtirgan ko'p millatli davlat. Bugungi kunda respublikada yashovchi har bir fuqaro millati, kelib chiqishi, dini va irqidan qat'i nazar teng huquq va imkoniyatlarga ega. Aynan mana shu tamoyil milliy siyosatimizning asosini tashkil etadi. Respublikadagi barcha millatlarni rivojlanishiga katta e'tibor qaratilib, ularning tili va dinini hurmat qilish, milliy va xalq an'analarini saqlash, erkin va har tomonlama taraqqiyotini ta'minlash maqsadida 80 ta milliy markazlar tashkil etilgan. Bularning faoliyatini 1993 yil yanvarida tashkil etilgan Respublika Baynalmilal madaniy markazi boshqarib boradi. Respublikamizda millatlararo munosabatlarda barqarorlikka erishilgan. Bu – O'zbekistonda demokratik jamiyat qurishning garovidir. Millat va elatlarga o'zaro hurmatda bo'lish-jamiyat ma'naviy barkamolligini belgisidir. Bu holat davlatdagi milliy barqarorlikdan tashqari, bu barqarorlikning yanada mustahkamlanishi uchun zamin yaratadi.

Hozirgi bosqichda jamiyatning demokratiyalashuvida «to'rtinchi hokimiyat» - matbuotning ahamiyati kattadir. 1997 yil Respublikamizda 8 tilda 495 ta gazeta 1844,2 ming nusxada, 113 ta jurnal 820 ming nusxada nashr etilgan. Ommaviy axborot vositalarini demokratiyalashtirish va qo'llab-quvvatlash maqsadida ijtimoiy-siyosiy jamg'arma tashkil etilgan. Respublikamizda jurnalist kadrlarni, ayniqsa, xalqaro jurnalistlarni tayyorlashga katta e'tibor berilmoqda. Bu borada 1999 yil mart oyida Vazirlar Mahkamasining O'zbekistonda jurnalist kadrlarni tayyorlashni, Toshkent Davlat Universitetining jurnalistika fakulteti va jahon tillari universitetida markazlashtirilishi katta ahamiyat kasb etadi. Modelning asosiy ma'no-mazmunini jamiyatni islox etishning mashxur besh tamoyili belgilaydi.

Ular: iktisodiyotning siyosat va mafkuradan xoliligi; davlat - bosh isloxotchi; konun ustuvorligi; kuchli ijtimoiy siyosat yuritish; bozor munosabatlarga boskichma-boskich utish.

Barkarorlik –

- 1) jamiyat xayotining osoyishtaligi;
- 2) ijtimoiy tuzum elementlarining uygunligi;

3) jamiyatdagi ijtimoiy birliklar(millat, din, katlam) vakillarning xamkorligi va xamji-xatligi.

Barkarorlik insoniyat tarixida yaratuvchanlik, bunyodkorlik faoliyatlari uchun asos bo'lgan. Faylasuf Konfusiy: "Farovonlik – maksad, isloxotlar – unga erishish yuli, barkarorlik esa shart – sharoitdir", - deb bejiz aytmagan. Shu sababdan xam jamiyat xayotida barkarorlikka intilib kelingan, bekarorlik bulmasligi uchun xarakat kilingan

Ijtimoiy barkarorlikni bir nechta jixatdan talkin kilish mumkin

1. Jamiyatdagi tinch-totuvlik;
2. Ijtimoiy katamlar, kuchlar, siyosiy partiyalar urtasidagi xamjixatlik vaziyati;
3. Davlat, jamoat tashkilotlari, fukarolar urtasidagi ijtimoiy kelishuv xolatining muttasil davom etishi.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak muxtaram prezidentimiz tomonidan yozilgan "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asari bugungi kunda butun jamiyat uchun juda kata hissa qo'shib kelmoqda hamda bu asar tufayli konsepsiyalar ishlab chiqilmoqda. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" o'rganilishi bo'yicha ta'lim texnologiyasi nazariy, amaliy, o'quv mashg'ulotlarni loyihalash texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan. Mazkur qo'llanma kirish, ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari hamda nazariy, amaliy to'quv mashg'ulotlarda o'qitish texnologiyalaridan tarkib topgan. Ta'lim texnologiyasining konseptual asoslari bo'limida "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" o'rganilishining dolzarbligiga asoslangan, mazkur fanning tuzilmasi keltirilgan hamda maxsus kurs bo'yicha o'qitishning mazmuni ochib berilgan. Shu bilan birga o'qitish, kommunikatsiya, axborot va ta'lim jarayonini boshqarish usullari va vositalarining konseptual asoslari, pedagogik texnologiyalarning yo'nalishlari, muammolari va echimlari, tamoyillari, yangi pedagogik texnologiyalarning istiqbollari yoritilgandir. Bu asarda eng buyuk jasorat haqida to'xtalgan va bu ma'naviy jasorat hisoblanadi. Antik davr faylasuflarining ma'naviy qahramonliklari. Sharq dunyosida akademiyalar faoliyati va unda faoliyat yuritgan allomalarning ma'naviy boy merosimizning shakllanishida qo'shgan hissalar. Vatan uchun jonini fido qilganlar – ma'naviy jasoar timsollari. Bobodehqon ma'naviy jasorati. Hozirgi zamon o'zbek ilfaning, adabiyotining ma'naviy jasorat ko'rsatayotgalari haqida. Prezidentimiz I. Karimov tomonidan milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi – ma'naviy jasoratdir. Passionar shaxs. Hozirgi zamon rahbarlarining ma'naviy qiyofasi xisoblanadi.

Adabiyotlar:

1. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyyotining poydevori.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi-T.: "Sharq", 1998.
3. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T “O’zbekiston”, 2008
4. I.A.Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: "O'zbekiston",1999
- 5 I.A.Karimov. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. - T.: "O'zbekiston",1996
6. I. A.Karimov. Donishmand xalqimizning mustahkam irodasigi ishonaman. - T.: "O'zbekiston", 2000
7. I.A.Karimov. Asarlar.1-7 jildlar. T: "O'zbekiston" 1996-1999
8. I. A. Karimov O’zbekiston buyuk kelajak sari. T., “O’zbekiston”. 1998. 5-66-betlar
9. I. A. Karimov. Barkamol avlod – O’zbekiston taraqqiyyotining poydevorining poydevori.T., 1997.
- 10.S.H.Nosirxo’jayev, M.F. Lafasov, S.A’zamxo’jayeva Ma’naviyat asoslari. – T “Turon-Iqbol”, 2007.

Taqriz varag'i